



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-avgust

VII-11-89-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

O‘z LiDeP partiya guruhi ish rejasiga ko‘ra, Farg‘ona tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi bo‘limi tomonidan 2025-yil 6 oy yakuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentyabrdagi "Aholining ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-319-sonli Qarori ijrosi bo‘yicha "Inson" ijtimoiy xizmatlar Markazi Farg‘ona tuman bo‘limi tomonidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

Farg‘onatumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan olib borilayotgan ishlar yuzasidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida O‘zLiDeP deputatlik guruhi tashabbus va takliflarini inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. "Farg‘ona tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi bo‘limi tomonidan 2025-yil 6 oy yakuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentyabrdagi "Aholining ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi PQ-319 sonli Qarori ijrosi bo‘yicha "Inson" ijtimoiy xizmatlar Markazi Farg‘ona tuman bo‘limi tomonidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida"gi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi direktori U.Yuldashevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi direktori (Yuldashev)ga:

- ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko‘makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash;
- har bir xonadon ahvolini o‘rganib, oilalardagi haqiqiy holatni hamda ularning ijtimoiy xizmatlar va yordamga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash;
- oilalarning iqtisodiy-ijtimoiy holati va ehtiyojlarini o‘rganish natijasida ularning ijtimoiy pasportlarini shakllantirish;

- yolg'iz va yordamga muhtoj keksalarga yordam berish;
- ko'p farzandli va boquvchisini yo'qotgan oilalarga yordam ko'rsatish;
- og'ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish;
- oilalarning iqtisodiy-ijtimoiy holatidan kelib chiqib kambag'allik reestriga kiritish va kambag'al oilalarni reestridan chiqarish maqsadida, tuzilgan individual rejalarni joyiga chiqqan holda oilaning imkoniyatlaridan kelib chiqib to'g'ri shakllantirib, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda muddatida bajarish;
- og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan oilalarni muntazam ravishda monitoring qilib borish, ular uchun ijtimoiy xizmat va yordamlarni tashkil etish choralarini ko'rish;
- har chorak yakuni bilan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Xalq deputatlari tuman Kengashiga ma'lumot taqdim qilib borish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i X.Abduq'anieva hamda O'zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo'limi (Xomidov)larga:

- mahallalarda hisobda turgan, ota-onalari xorijga ishlash maqsadida chiqib ketgan oila farzandlarini aniqlash va ularga homiylik, vasiylik belgilash bo'yicha hududlarda monitoring ishlarini olib borish;
- mahallalarda ijtimoiy og'ir ahvolga tushib qolgan yoki ijtimoiy og'ir ahvolga tushib qolish xavfi bo'lgan oilalarni aniqlash va ularga "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazining xizmat turlarini ko'rsatish;
- o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz, nogironligi bo'lgan shaxslarga, kam ta'minlangan oila a'zolariga, tazyiq va zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga, yetim bolalarga, ota-onalik huquqidan mahrum etilmasdan, farzandlari olib ketilgan ota-onalarga, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlarga, to'liq bo'lmagan oilalarga va boshqa toifadagi fuqarolarga muntazam ravishda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazining xizmat turlarini ko'rsatish choralarini ko'rsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash tuman hokimining o'rinbosari (Toshpo'latov)ga, nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining "Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport" masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Dadajonova) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH